

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA  
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA  
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**XO'JAMIYAROV SA'DULLO CHORIYEVICH**

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MAS'ULIYAT HISSINI  
SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHI VA OTA-ONA HAMKORLIGINI  
TA'MINLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH  
(katta maktabgacha yosh misolida)**

**13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии  
(PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy  
(PhD) on pedagogical sciences**

**Хо'jamiyarov Sa'dullo Choriyevich**

Мақтабгача уoшдаги болаларда мас'улият hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligini ta'minlash metodikasini takomillashtirish (katta maktabgacha yosh misolida).....3

**Хужамияров Садулло Чориевич**

Совершенствование методики обеспечения сотрудничества воспитателя и родителей в формировании у дошкольников чувства ответственности (на примере старшего дошкольного возраста).....25

**Khujamiyarov Sadullo Chorievich**

Improving the methodology for ensuring cooperation between the educator and parents in the formation of a sense of responsibility among preschoolers (on the example of senior preschool age).....50

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works.....54

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA  
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**

**PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA  
MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**XO'JAMIYAROV SA'DULLO CHORIYEVICH**

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MAS'ULIYAT HISSINI  
SHAKLLANTIRISHDA TARBIYACHI VA OTA-ONA HAMKORLIGINI  
TA'MINLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH  
(katta maktabgacha yosh misolida)**

**13.00.08 – Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2020.2.PhD/Ped1732-raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.mdomoi.uz](http://www.mdomoi.uz)) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Ximmataliyev Do‘stnazar Omonovich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:** **Djamilova Nargiza Nuritdinovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Xushnazarova Ma‘mura Nodirovna**  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Shaxrisabz pedagogika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.12/30.12.2019.Ped.80.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “\_\_\_\_\_” soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: Toshkent shahri, Yusuf xos Hojib ko‘chasi, 64-uy. Tel: (99871) 150-01-27; faks: (99871) 150-01-27; E-xat: [mtm-malaka.oshirish@exat.uz](mailto:mtm-malaka.oshirish@exat.uz)).

Dissertatsiya bilan Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Yusuf xos Xojib ko‘chasi, 64-uy. Tel: (99871) 150-01-27; faks: (99871) 150-01-27; e-mail: [mtm-malaka.oshirish@exat.uz](mailto:mtm-malaka.oshirish@exat.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**N.H.Raxmankulova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

**Sh.E.Ne‘matov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi, p.f.n., dotsent

**K.D.Riskulova**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
p.f.d. (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon miqyosida shaxsning turmush farovonligi davlatning milliy xavfsizligi, mamlakatda innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirishning sharti sifatida qaralmoqda. YUNESKO (United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization) tomonidan qabul qilingan 2030-yilgacha xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Ijtimoiy-madaniy institutlarning ta'limiy, madaniy va ma'rifiy salohiyatini shakllantirish, hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish"<sup>1</sup> dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Gretsiya kabi davlatlarda shaxsning shakllanishi va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim ijtimoiy-madaniy institut bu oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti ekanligi ta'kidlanib, u bolani o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonitirish, pedagogik qo'llab-quvvatlash, (pedagogical support) yosh avlodning jamiyat, millat va davlat oldidagi mas'uliyatini his ettirish, javobgarlikni tarkib toptiradigan ijtimoiy-madaniy amaliyotning asosiy tashuvchisi sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, ilg'or tajribalar maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligining pedagogik imkoniyatlarini kengaytirish hamda ushbu pedagogik jarayon samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

Dunyoda shaxsning ijtimoiy-madaniy munosabatlarga haqiqiy jalb etilganliklari darajasi va ularning moslashuv qobiliyatlarini aniqlash, innovatsion imkoniyatlarni kengaytirish strategiyalarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish jarayonini loyihalashtirishga doir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bunda tarbiyachi va ota-ona hamkorligini ta'minlash asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishga yo'naltirilgan metodikalarni ishlab chiqishga alohida e'tibor berilib, tarbiyalanuvchilarning yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularda jamiyat, millat va davlatga nisbatan mas'uliyatli munosabatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv maqsadga yo'naltirilgan hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonining samarali shakllari va usullarini joriy etish, tarbiyachi va ota-ona pedagogik hamkorligini kengaytirish masalalariga ustuvorlik berishni talab etmoqda.

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashga katta e'tibor qaratilib, maktabgacha yoshdagi bolalar va ularning tarbiya masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarilgan. Jumladan, respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimining metodik ta'minotini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila institutining hamkorligini kengaytirish, sinergetik yondashuvlar asosida subyektlar faoliyatini integratsiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida "Bolalarni Vatanga muhabbat, mehnatga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga, shuningdek umuminsoniy qadriyatlarga

---

<sup>1</sup> Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 May 2015, Incheon, and Republic of Korea). – 6r. – 26 R.

hurmat bilan munosabatda bo'lish, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashi; oilada bolaning har tomonlama shakllanishi, ta'lim va tarbiya olishi uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlashi shart"ligi belgilab qo'yilgan. Bu, o'z navbatida, maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligini ta'minlash, metodik imkoniyatlarini aniqlashtirish, o'quv-uslubiy ta'minotini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 23-sentabrda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrda PQ-3261-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 8-mayda PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini shakllantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarorlari, 2020-yil 29-oktyabrda PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha shakllantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvarda PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda 802-sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti to'g'risida"gi, 2019-yil 13-mayda 391-sonli "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 11-iyunda 487-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimiga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari hamda Maktabgacha ta'lim agentligi tomonidan qabul qilingan maktabgacha ta'lim tizimiga oid qarorlar ijrosini ta'minlashda ushbu tadqiqot ishi natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari shakllanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy-madaniy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi bo'yicha bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda maktabgacha ta'limni rivojlantirishga oid tadqiqotlar F.R.Qodirova, N.N.Djamilova, T.L.Xurvaliyeva, D.A.Abduraximova, M.K.Abduhakimova, Z.Azizova, M.Asqarova, N.X.Begmatova, G.A.Berdaliyeva, U.Bo'tayeva, K.Oqilova, F.N.Vaxabova, D.M.Mallayev, D.T.Mahmudova, Sh.B.Nabixonova, S.V.Pak, Sh.Shodmonova, R.Yusupova, M.N.Xushnazarova va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Turli yoshdagi bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limning ayrim jihatlari va ularning aqliy fikrlashini shakllantirish masalalari MDH olimlaridan Ye.A.Avilova, A.Arushanova, M.Bakina, Ye.Bern, R.S.Bure, A.A.Verbitskiy, D.Gans, V.V.Davidov, S.I.Zair-Bek, Ye.R.Ilin, I.M.Kononova, Ye.K.Lyutova, G.B.Monina va boshqalarning tadqiqotlarida yoritilgan.

Bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'lim va ularning intellektual shakllantirish masalalari xorijlik olimlar A.S.Belkin, M.Montessori, J.Piaje, K.K.Platonov, S.Kuger, V.B.Kosminskaya, V.K.Kotirlo, I.I.Svirelkina, Dj.Dyui, M.V.Klarin kabilar tomonidan tadqiq yetilgan.

O'tkazilgan ilmiy nazariy tahlillar natijasiga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirish imkoniyatlari, ahamiyati va uning ilmiy metodik asoslari to'liq ochib berilmagan. Bu o'z navbatida, maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligini ta'minlash metodikasini tadqiq etishning dolzarbligini ko'rsatadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutining ilmiy tadqiqotlar rejasining "Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning konseptual-metodologik masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligini ta'minlash metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tarbiyachi va ota-ona hamkorligi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishning tashkiliy-metodik xususiyatlarini aniqlashtirish;

tarbiyachi va ota-ona hamkorligi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirish metodikasini takomillashtirish;

tarbiyachi va ota-ona hamkorligini ta'minlash asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirish modelini takomillashtirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissining shakllanganligini baholash mezonlarini takomillashtirish.

**Tadqiqot obyekti:** maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligini ta'minlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

**Tadqiqot predmeti** tarbiyachi va ota-ona hamkorligini ta'minlash asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirish mazmuni, shakli, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metodlar majmui qo'llanildi: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik usullar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshqa)dan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

maktabgacha yoshdagi bolalarda tarbiyachi va ota-ona hamkorligi vositasida mas'uliyat hissini shakllantirishning tashkiliy-metodik xususiyatlari "burch",

“javobgarlik” kabi ekzistensial komponentlarni o‘quv-tarbiyaviy faoliyat mazmuniga shaxsiy va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini bosqichma-bosqich shakllantirish orqali yo‘naltirish va didaktik implementasiya qilish asosida aniqlashtirilgan;

tarbiyachi va ota-ona hamkorligi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirish metodikasi differensial o‘quv muhitida dialogik munosabatlardagi qiynchiliklarni kuzatish taktikasiga ustuvorlik berish asosida integrativlik imkoniyatlarini qo‘llash orqali takomillashtirilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirish modeli bola faoliyatida muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini ko‘rinishlari va ijobiy munosabatlarni shakllarini aniqlashtirishga ko‘ra o‘yin jarayoniga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarda mas’uliyat hissining shakllanganligini baholash mezonlari akademik topshiriqlarni protsessual-kommunikativ va tashxisli jarayonda vaziyatni baholash va qaror qabul qilishga motivatsiyalovchi shartlarni sinergetik ta’sirda qo‘llash asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilarda o‘z aksini topgan:

maktabgacha yoshdagi bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirishning metodik ta‘minotini takomillashtirishga doir metodik ko‘rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tarbiyachi va ota-ona hamkorligini ta‘minlash asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlangan va metodik modeli takomillashtirilgan;

maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari uchun “Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma hamda “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida mas’uliyat hissini shakllantirish usullari” nomli metodik tavsiyanoma ishlab chiqilgan;

tarbiyachi va ota-ona hamkorligini ta‘minlash asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda mas’uliyat hissining shakllanganlik darajasini tashxislashga qaratilgan metodika va didaktik mahsulotlar yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati maktabgacha yoshdagi bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirishning metodik imkoniyatlari aniqlanganligi, tarbiyachi va ota-ona hamkorligini ta‘minlash asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda mas’uliyat hissini shakllanganlik darajasini baholash mezonlari hamda ilmiy metodik tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ulardan malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan davlat talablarini ishlab chiqishda, tarbiyachi va ota-ona hamkorligini ta'minlash, maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirish asosida mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yisha ishlab chiqilgan metodik tavsiyalardan esa o'quv reja, fan dasturlari hamda malaka talablarini takomillashtirish, darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligini ta'minlash bo'yisha ishlab chiqilgan nazariy va amaliy takliflar asosida:

maktabgacha yoshdagi bolalarda tarbiyachi va ota-ona hamkorligi vositasida mas'uliyat hissini shakllantirishning tashkiliy-metodik xususiyatlari "burch", "javobgarlik" kabi ekzistensial komponentlarni o'quv-tarbiyaviy faoliyat mazmuniga shaxsiy va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini bosqichma-bosqich shakllantirish orqali yo'naltirish va didaktik implementasiya qilish asosida aniqlashtirilgan taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim vazirining 2019-yil 10-oktyabrdagi 05-1071-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Maktabgacha ta'lim tizimi rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qo'yiladigan davlat talablari"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 12-apreldagi 02-01/5-43-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi sohasidagi yutuqlar hamda maktabgacha ta'limga oid ilg'or tajribalarni o'rganish asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishning ta'sirchan metodlari, usullari, texnologiyalari va pedagogik-psixologik imkoniyatlari belgilangan;

tarbiyachi va ota-ona hamkorligi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirish metodikasi differensial o'quv muhitida dialogik munosabatlardagi qiynchiliklarni kuzatish taktikasiga ustuvorlik berish asosida integrativlik imkoniyatlarini qo'llash orqali takomillashtirishga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 391-sonli qarori 1-ilova bilan tasdiqlangan umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risidagi nizom loyihasini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta'lim agentligining 2023-yil 12-apreldagi 02-01/5-43-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tarbiyachi va ota-ona hamkorligida maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirish jarayoni modeli motivatsion-maqсадli, subyekt-subyekt, mazmunli, protsessual-kommunikativ, tashxisli-natijaviy kabi tarkibiy tashkil etuvchilar faoliyatini sinergetik yondashuv imkoniyatlari asosida takomillashtirilgan;

maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirish modeli bola faoliyatida muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini ko'rinishlari va ijobiy munosabatlarni shakllarini aniqlashtirishga ko'ra o'yin jarayoniga ustuvorlik berish

asosida takomillashtirishga oid tavsiyalari “Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 12-apreldagi 02-01/5-43-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, maktabgacha ta’lim jarayonida AKTdan foydalangan holda o‘quv-tarbiya faoliyatini tashkil etishning metodik ta’minoti takomillashtirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobeitsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning e’lon qilinganligi:** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 19 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining PhD doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola nashr qilingan, jumladan, 5 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnalda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning matni 146 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, ilmiy muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari bayon qilingan, obykti va predmeti aniqlangan, fan va texnologiyalarni shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, tadqiqot ishi tuzilishi va hajmiga doir ma’lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning “**Maktabgacha yoshdagi bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligini ta’minlashning nazariy-empirik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida maktabgacha yoshdagi bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida asoslangan hamda bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligini tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlil qilingan.

Har xil faoliyat turlarida maktabgacha katta yoshdagi bola avval kattalar yordamida, so‘ngra mustaqil natija bilan uning erishgan hissasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rnatadi. U o‘z xatti-harakatlarining natijalari uchun shaxsiy javobgarlik tajribasini to‘playdi, shu bilan birga qoniqish hissini boshdan kechiradi.

Pedagogik ensiklopediyada **mas’uliyatlilik** arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, javobgarlik, hisob berishlik, biror ish, xatti-harakat oqibati, natijasi sifatida ta’riflanadi. Mas’uliyatlilik deganda quyidagilar: ma’naviy, ijtimoiy-madaniy va ma’muriy-huquqiy sohalarda keng qo‘llaniladigan tuchunsha; ijtimoiy-madaniy ma’noda jamiyat oldidagi ma’naviy va ma’rifiy burch; ijtimoiy-madaniy tartibga solishning turli me’yorlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi jamoatchilik

nazorati; ma'naviyat nuqtayi nazaridan yondashilganida burch; huquqiy yondashuvda esa, asosan huquqiy javobgarlikni anglatadigan keng ma'noli mazmun" bo'yicha ifodalangan.

**Mas'uliyat** – bu shaxs o'z harakatlari to'g'risida to'liq hisobot beradigan va belgilangan ish natijalari, har qanday majburiyatlarni bajarishda uning oqibatlari uchun aybdor bo'lgan yondashuvni belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchisi o'z imkoniyatlari va individual xususiyatlaridan xabardor bo'lishi, kattalar va tengdoshlari bilan kommunikativ muloqot qila olishi, hamdardlik va hamkorlik qilishi, nostandart vaziyatda qaror qabul qila olishi va ular uchun mas'uliyatli bo'lishi kerak. Maktabgacha katta yoshda bolaning o'z vazifalariga bo'lgan munosabati o'zgaradi va u o'z ishiga mas'uliyatli bo'lib qoladi. Yangi motiv paydo bo'ladi, tashabbusli bo'ladi, o'ziga bo'lgan munosabati o'zgaradi va o'zini-o'zi obyektiv baholay oladi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolada o'z-o'zini anglash, his qilish past darajada bo'ladi. Haqiqatdan ham mas'uliyatli bo'lish uchun bolaga bo'lishi mumkin bo'lgan oqibatlarni oldindan bilishga o'rgatish kerak. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishda asta-sekin ularga kattalar jamiyatining qoidalari va me'yor-huquqlarini o'rgatish va aynan shu bilimlar kelajakda mas'uliyatli xatti-harakatlarning asosi ekanligini ma'naviy-axloqiy jihatdan singdirish zarur.

5-6 yosh – mas'uliyatli xulq-atvorni shakllantirish uchun eng maqbul vaqt. Bolani ma'naviy yoki ijtimoiy-madaniy jihatdan javobgarlikka tortish kerak bo'lgan bir nechta sohalar mavjud. Masalan, o'z o'yinchoqlari uchun javobgarlik: o'zing yo'qotding, o'zing izlab top; kechki ovqatdan oldin dasturxon tuzashga yordamlashish. Bular oilada mas'uliyatli munosabatni tuchuntirishning ilk qadamlari bo'lib, majburiy o'rnatilishi kerak. Maktabgacha ta'limda ham bolalarga xavfsizlikka rioya qilish, o'yinchoqlarni tartibga solish, qoidalarga rioya qilish kabi mas'uliyatlar yuklanadi.

Tadqiqotimiz natijasida biz ***maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissining shakllanganligi*** – bu bolaning xulq-atvorini ma'naviy-axloqiy qoidalari nuqtayi nazaridan aks ettirishga tayyorligi hamda boshqalar va o'zining oldida o'z faoliyati natijasi uchun javobgar bo'lishni aks ettiruvchi shaxsiy xususiyatdir deb mualliflik ta'rifini berdik.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning quyidagi mas'uliyat sohalari aniqlangan: o'z sog'ligi, xavfsizligi va hayoti uchun javobgarlik; yaqinlari va boshqalarning farovonligi bilan bog'liq harakatlar uchun javobgarlik; uy hayvonlari uchun javobgarlik; o'z narsalari uchun javobgarlik; berilgan so'z va qaror uchun javobgarlik; o'z muvaffaqiyatlari va ayniqsa muvaffaqiyatsizliklar uchun javobgarlik; ekologik javobgarlik kabilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishning uchta komponentini ajratib ko'rsatishadi:

1. Kattalar va bolalarning birgalikdagi faoliyati sifati.
2. Mashg'ulotlar shaklida maxsus tashkil etilgan mashg'ulotlar sifati.

### 3. Bolalarning erkin, jamoaviy, mustaqil faoliyati sifati.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda shaxsiy-faoliyatli yondashuvni tatbiq etish asosida mas'uliyat hissini shakllantirish mumkin. Tadqiqotimiz doirasida biz quyidagi maktabgacha yoshdagi bolalarning mas'uliyat sohalarini aniqladik.



1-rasm. Bolalarning mas'uliyat sohalari

***O'z sog'ligi, xavfsizligi va hayoti uchun javobgarlik.*** Bunga ota-onalar mas'ul bo'lishlari kerak bo'lgan asosiy mas'uliyat sohalaridan biridir. U 3 yoshda, bola o'z xatti-harakatlarining o'zi uchun xavfli ekanligini tuchuna boshlagash shakllana boshlaydi. Ota-onalar predmetlari, ba'zi vaqtlarda hududlarni juda qattiq cheklaydilar: elektr jihozlariga teginish, televizor, dazmol, balandliklarga chiqish, sakrash ta'qiqlangan.

***Uy hayvonlari uchun javobgarlik.*** Agar uyda hayvon bo'lsa, u holda bolaga unga g'amxo'rlik qilish majburiyatlari (ovqatlarntirish, suv berish va hokazo) bo'lishi kerak. Hatto yosh bolalar ham o'z vazifalarini bajarishlari mumkin (Tovuqlarga don berildimi yoki berilmadimi?...). Lekin, bu yoshda bolaga juda katta mas'uliyat yuklamaslik kerak. Bu yoshdagi bola osongina chalg'iydi, vaqt tuchunchasini kam tuchunadi, shuning uchun hayvonni boqish uchun mas'uliyat hissini yuklash ularga og'irlik qilishi mumkin.

***Yaqinlari va boshqalarning farovonligi bilan bog'liq harakatlar uchun javobgarlik.*** Bu atrofda insonlar aloqalarni o'rnatish uchun kelajakdagi poydevorni yaratadi, ular orasida eng tanishlardan tortib notanishlargacha. "Onam uxlayaptilar, ular charchaganlar, men baqir-chaqir qilmasligim kerak". Albatta, ba'zida maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z faoliyatini cheklash, yaqinlarining manfaatlarini hisobga olish qiyin bo'ladi. Bolaning xatti-harakati boshqa odamlarning unga bo'lgan munosabatiga ta'sir qiladi.

***O'z narsalari uchun javobgarlik.*** Bolaning yoshi ulg'aygan sayin, o'z narsalarining xavfsizligi bilan bog'liq mas'uliyat hissi oshadi: o'yinchoqlar, mebellar, kiyimlar, idishlar va boshqalar. Bola o'z holati uchun javobgarligini taxminan 3 yoshida tushuna boshlaydi. Undan oldin, agar biror narsa yoqmasa, u g'azablanib o'yinchoq otishi mumkin.

***Berilgan so'z va qaror uchun javobgarlik.*** Ko'pincha ota-onalar odatda e'tiborini bolaning so'ziga e'tibor muhimligiga e'tibor qaratadilar. "Sen o'yinchoqlarni yig'ishtirib qo'yishga va'da berganding, va'dani bajarish kerak!"

Bunday iboralar ko‘rincha ota-onadan, buvilardan eshitiladi. Ular ko‘p jihatdan bola tushunishi uchun zarurdir: u aytgan so‘zlari va bergan va‘dasi uchun javobgardir.

**O‘z muvaffaqiyatlari va ayniqsa, muvaffaqiyatsizliklar uchun javobgarlik.** Bola o‘zi mustaqil ovqatlanishni, keyin kiyinishni 2 yoshdan o‘rganadi. Aksariyat ota-onalar bolaning muvaffaqiyatini taqdirlashadi, lekin unga yordam berishga shoshilmaydilar. Shuningdek, kelajakda bola turli xil narsalar va o‘yinchoqlar dunyosini o‘rganganida, unga yordamga shoshmaslik va oshirib yubormaslik kerak.


**Ekologik javobgarlik.** Afsuski, ota-onalar bunday mas‘uliyat hissini unutishadi. Agar bola shokolad qog‘ozini yerga tashlasa yoki gul barglarini tortsa, yonida yurgan kattalar bunga munosabat bildirishlari kerak. Atrof-muhit, ko‘chalarni ozoda saqlash va tabiatni hurmat qilish muhimligini o‘rgatish kerak.

Ushbu tahlil shuni ko‘rsatdiki, shaxsiyatning o‘ziga xos xususiyati sifatida mas‘uliyatini shakllantirishga, ijtimoiy-madaniy tajribani to‘plash muammosiga yetarli darajada e‘tibor qaratilmagan, shu bilan birga maktabgacha yoshdagi bolalarda mas‘uliyat hissini shakllantirishga e‘tibor qaratilmagan. Buning sababi, bizning fikrimizcha, umume‘tirof etilgan tarbiya mazmunini ishlab shiqilmaganligi yoki ularning nazariy va amaliy shakllanmaganligidir.

Chunki barcha shaxsiy sifatlar va fazilatlar bola hayotini tashkil etuvchi faol faoliyatda rivojlanadi. Maktabgacha yoshidagi bolalar uchun **o‘yin, mehnat, qoidalar va bilish** faoliyatlari tavsiflidir.

Ijtimoiy-madaniy fazilatlar tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarning mas‘uliyat hissi ularning xatti-harakatlarida mas‘uliyat hissini namoyon qilishi uchun zarur bo‘lgan bilimlar va muhim qadriyatlarining kombinatsiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu fazilatlar ijtimoiy-madaniy yo‘nalishga kiritilgan bo‘lib, uning asosida faoliyat tavsifi va shaxsning xulq-atvori shakllanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalar o‘rtasida insonparvarlik pedagogikasi nuqtayi nazaridan mas‘uliyat hissini shakllantirish jarayoni maktabgacha bo‘lgan katta yoshdagi bolalarning mas‘uliyatli xatti-harakatlarining shaxsiy va ijtimoiy-madaniy xususiyatlarini bosqichma-bosqich shakllantirishni o‘z ichiga oladi (2-rasm).



**2-rasm. Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxsiy va ijtimoiy-madaniy fazilatlar tizimi**

Dissertatsiyaning “**Tarbiyachi va ota-ona hamkorligini ta’minlash asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirish metodikasi**” deb nomlangan ikkinchi bobida bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligini tashkil etishning metodik imkoniyatlari tahlil qilingan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirishda qo’llanadigan shakl, metod va vositalar ko’rsatib o’tilgan. Shuningdek, bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligini tashkil etishga yo’naltirilgan pedagogik jarayon modeli ishlab chiqilgan.

Bolalarda mas’uliyat hissini shakllantirishda tarbiyachi va ota-ona hamkorligini tashkil etishning metodik imkoniyatlari xilma-xil.

**Birinchi**dan, bu tarbiyachilar va ota-onalarning bolalarni tarbiyalashda birgalikda ishlashga ijobiy hissiy-emotsional munosabati. Ota-onalar maktabgacha ta’lim tashkilotiga ularda har doim pedagogik muammolarni hal qilishda yordam berishiga va shu bilan birga ularga zarar yetkazmasligiga ishonishadi, shunki oilaning fikri va bola bilan muloqot qilish, tarbiya xislatlari bo’yicha taklif va tavsiyalar inobatga olinadi. Tarbiyachilar bolada mas’uliyat hissini shakllantirish masalasida ota-onalardan ma’lumot olishadi.

**Ikkinchi**dan, o’zaro hamkorlikda bolaning individual xususiyatlari hisobga olinadi. Tarbiyachi oila bilan doimiy aloqada bo’lib, o’z tarbiyalanuvchisining o’ziga xos xususiyatlari, odatlarini biladi va mas’uliyat hissini shakllantirishda ularni hisobga oladi, bu esa, o’z navbatida, pedagogik jarayon samaradorligining oshishiga olib keladi.

**Uchinchi**dan, ota-onalar mustaqil ravishda maktabgacha katta yoshdagi bolani shakllantirish, ta’lim berish va tarbiyalashning kerakli yo’nalishini tanlashi va shakllantirishi mumkin. Shunday qilib, ota-onalar farzand tarbiyasi uchun mas’uliyat hissini o’z zimmlariga oladilar.

**To’rtinchi**dan, bu maktabgacha ta’lim tashkilotida va oilada bolada mas’uliyat hissini shakllantirishning yagona dasturini amalga oshirish imkoniyati.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’lim va tarbiya amaliyotida ta’lim metodlarining quyidagi turlaridan keng foydalaniladi:

**ko’rgazmali metodlar** – kuzatish, ko’rsatmali tasvirlarga rasmlar, diafilmlar, slaydlar, multimediyalar, kompyuter dasturlarini namoyish etish, namuna qilib ko’rsatish kabi metodlarni qamrab oladi;

**og’zaki metodlar** – hikoya, suhbat, dialog, badiiy adabiyot o’qish, savollar bilan murojaat qilish, ko’rsatma berish va tushuntirish va boshqalar kiradi;

**amaliy metodlar** – safdan tashqari mashqlar, tajriba almashinuvi, modellashtirish kabi metodlar o’rin oladi.

Har bir metod ma’lum ta’limiy va tarbiyaviy vazifani muvaffaqiyatli hal etishi, qolganlari esa, ayni holat uchun birmuncha samarasiz bo’lishi ham mumkin. Universal ya’ni barcha shakllar uchun ahamiyatli ta’lim metodlari mavjud bo’lmagani bois mashg’ulotlarda turli ta’lim metodlaridan, pedagogik texnologiyalardan yoki ularning majmuasidan foydalanish mumkin bo’ladi.

Tadqiqot davomida biz olib borilgan amaliy ishlarda maktabgacha katta yoshdagi bolalarda bir qancha ta'lim metodlari va texnologiyalari yordamida mas'uliyat hissini shakllantirish maqsadida bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan TRIZ texnologiyasidan foydalandik hamda uni qo'llash kutilgan yuqori samarani berdi.

**TRIZ (IMEN) texnologiyasi** – bu muammo yoki vaziyatning eng yaxshi va eng to'g'ri yechimini topishda bolaga amaliy yordam bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta yoshdagi tarbiyalanuvchilarda mas'uliyat hissini shakllantirishda TRIZdan umumiy foydalanishning qisqacha tavsifi quyidagicha ifodalanishi mumkin:

Muammoni malakali shakllantirish, mavjud muammoni aniqlash (jumboqlarni yechish, topshiriqlarni yechish, tayanch iboralarni tushunish, bolalarning vazifalarini aniqlash, topshiriqlar tizimini ishlab chiqish).

Resurslar ta'rifi (bolalar obyektning nima qilishini, qanday jismoniy va aqliy amallarni bajarishini aniqlaydilar).

Qarama-qarshiliklarni aniqlash (yaxshi-yomon, to'g'ri-xato).

Kutilgan optimal natijalar, umumlashmalar (umidlar haqiqiy shart-sharoitlarga asoslanadi).

Turli yechimlarni simulyatsiya qilish, imitatsiyalash, qarama-qarshiliklarni hal qilish (mashqlar, syujetli rolli o'yinlar, jumboqlar, topishmoqlar va boshqalar).

Kutilmagan, kreativ va ijodiy yechimlar.

Yechimni tahlil qilish (tarbiyalanuvchining refleksiv faoliyati), uni takomillashtirish yo'llari va yechimlari.

Maktabgacha ta'limdagi zamonaviy tendensiyalardan biri – bolalarning yaratuvchilik salohiyatini shakllantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni va metodikalarni unumli qo'llagan holda bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlashdir, **TRIZ (IMEN)** texnologiyasi innovatsion o'qitish metodlarining samarali (ixtiroshilik, topqirlik, muammolarini shartli hal qilish nazariyasi) shartidir. Bu maktabgacha katta yoshdagi bolalarni mas'uliyat ruhida tarbiyalashda, mustaqil fikrlash va fikrini erkin bayon etishda, dialogik munosabatlarda muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etishga o'rgatishda juda muhimdir.

**TRIZ** texnologiyasi mohiyati shundaki, muammo yoki vaziyatning eng yaxshi va to'g'ri yechimini topishda bolaga amaliy yordam ko'rsatiladi. Bolalar fikrlashni o'rganadi, tarbiyachi topshiriqni bajarishga majburlamasdan, yo'naltiradi. Mas'uliyat hissini shakllantirishda TRIZ texnologiyasidan foydalanish tavsifini quyidagicha ifodalash mumkin:

Mavjud muammoni aniqlash (vazifalarni belgilash, topshiriqlar tizimini ishlab chiqish hayotiy jumboqlarni yechish, topshiriqlarni bajarish).

Bolalar qanday jismoniy va aqliy amallar bajarishni aniqlaydi.

Qarama-qarshi vaziyatlarni ajratish (yaxshi-yomon, to'g'ri-xato).

Turli yechimlarni simulyatsiya qilish, imitatsiyalash, qarama-qarshiliklarni hal qilish (mashqlar, syujetli rolli o'yinlar, jumboqlar, topishmoqlar va boshqalar).

Kutilmagan, kreativ va ijodiy yechimlar topish.

Yechimni tahlil qilish (tarbiyalanuvchining reflektiv faoliyati), uni takomillashtirish yoʻllari va yechimlari.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda masʼuliyat hissini tarbiyalashda, mustaqil fikrlash va fikrini erkin bayon etishda, dialogik munosabatlarda muammoli vaziyatlarni mustaqil hal etishga oʻrgatish juda muhimdir.

Ushbu texnologiyani qoʻllash natijasida tarbiyalanuvchilarda atrof-olam manzarasini anglash, muammoning kreativ yechimlarini ishlab chiqish istagi paydo boʻladi. Soʻz, aql, xotira, ijodiy hayolotni shakllantirish kabi masʼuliyat xulq-atvorini shakllantirish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda masʼuliyat hissini shakllantirish pedagogik texnologiyasi 3-bosqichda amalga oshirildi.

**1-bosqich. Namoyish etish va motivatsiyani shakllantirish.** Bu bosqichda biz badiiy adabiyot, namoyishlar, koʻrgazmalar, kuzatishlar asosida odob-axloq normalari, xulq-atvor, oʻyin qoidalari bilan tanishish boʻyicha kattalardan bevosita koʻrsatmalari asosida mashgʻulotlar jamlanmasidan foydalandik.

Oʻyin qoidalari yordamida turli xil vazifalarni hal qilish mumkin:

bolalarning oʻzlari va boshqa odamlar haqida kognitiv va shaxsiy bilish qobiliyatlarini shakllantirish: (“Ahmadboy”, “Sehri xum”, “Besh tosh”, “Ogʻma ip”, “Sehri olma”, “Uy hayvonlari” va boshqalar);

hissiy ongini shakllantirish: “Tez aytish”, “Hisoblash”, “Ranglarni ajratish” va boshqalar;

bolalarning ogʻzaki boʻlmagan aloqa vositalarini oʻzlashtirishi: “Yashirin oʻyin”, “Oʻlkamiz haqida”, “Loy oʻyini”, “Ismlarni teskari aytish oʻyini” va boshqalar;


**2-bosqich. Masʼuliyatli xatti-harakat koʻnikmalarini shakllantirish.** Bu bosqichdagi taʼlimiy va tarbiyaviy ishlarning asosiy yoʻnalishlari bola uchun keyingi tahlil qilinadigan muammoli vaziyatlar, shuningdek, syujetli-didaktik oʻyinlar majmui, pedagogik texnologiyalari va metodlaridan foydalaniladi.

Maʼnaviy-axloqiy tarbiyaning shakllaridan biri, maʼnaviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, xususan, masʼuliyatda muammoli vaziyatlarni yaratish yoki tashkil etishdir.

Har qanday muammoli vaziyatni ijodiy vazifa yoki yechilmagan ziddiyatga asoslangan vazifa deb qarash mumkin. Shuning uchun maktabgacha katta yoshdagi bolalarda masʼuliyatli xulq-atvorni shakllantirishning samarali vositasi boʻlgan muammoli vaziyatlardir.

**3-bosqich. Oʻz faoliyatida masʼuliyatga oid hayotiy tajribalardan foydalanish.** Ushbu bosqichni amalga oshirish quyidagi yoʻnalishlarda olib borildi:

1. Bolalarni oʻrab turgan atrof-muhit bilan aloqasini taʼminlash.
2. Ish topshiriqlari va uy vazifalaridan foydalanish.
3. Masʼuliyat hissini koʻrsatishga qaratilgan mashgʻulotlar majmui.



3-rasm. Tarbiyachi va ota-ona hamkorligini ta'minlash asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda mas'uliyat hissini shakllantirishning metodik modeli

Bu yoʻnalishdagi topshiriq va vazifalar bolalarni masʼuliyatni amalga oshirishga oʻrgatishni oʻz ichiga oladi.

Tadqiqotimizning maqsadi, vazifalari va gʻoyasini hisobga olgan holda sinergetik yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarning masʼuliyat hissini shakllanishini pedagogik qoʻllab-quvvatlashning metodik modelini ishlab chiqdik.

Tadqiqotimiz modelini ishlab chiqishning nazariy-metodologik asosi kompetensiyaviy yondashuvlardir. Sinergetik yondashuv tadqiqot yoʻnalishi va metodikasini qurishda subyektiv, tamoyilli va har qanday pedagogik hodisa (tizim)ni muayyan nuqtayi nazardan oʻrganish sifatida qaralishi mumkin. Tadqiqotimizdagi maktabgacha katta yoshdagi bolalarning masʼuliyatini shakllantirishni pedagogik qoʻllab-quvvatlashni modellashtirish, uning komponentlari, ular oʻrtasidagi uzviy munosabatlar va ularning vazifalarini aniqlash uchun asos sinergetik yondashuv hisoblanadi.

Tadqiqotimizning maqsadi, vazifalari va gʻoyasini hisobga olgan holda sinergetik yondashuv asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarning masʼuliyatini shakllanishini pedagogik qoʻllab-quvvatlashning metodik modelini ishlab chiqdik (3-rasm).

**Maqsadli blok** (yoʻnaltiruvchi funksiya) jamiyatning ehtiyojini, davlatning ijtimoiy-madaniy tartibini bolalarning ijtimoiy-madaniy va shaxsiy shakllanishini hamda masʼuliyat hissini shakllanishini pedagogik qoʻllab-quvvatlashda, jamiyatda muloqot va faoliyatni qoʻllab-quvvatlashda, qadriyat yoʻnalishini, oʻz-oʻzini anglashi, oʻz-oʻzini shakllantirishi, shaxsning maʼnaviy-axloqiy va estetik munosabatini namoyon qilish maqsadi bilan ifodalanadi. Davlat buyurtmasi maktabgacha taʼlim tizimining meʼyoriy hujjatlari – “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni va “Ilk qadam” Davlat dasturi bilan tartibga solinadi.

Mamlakatimizda oila, jamiyat va davlatning ijtimoiy-madaniy-maʼrifiy meʼyorlari va anʼanalariga tayangan holda bolalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, tashabbuskorlik, mustaqillik, javobgarlik va masʼuliyat hissini shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu blokda tarbiyachi-pedagog va mutaxassislarning birgalikdagi faoliyati jarayonida hal etilishi mumkin boʻlgan maktabgacha katta yoshdagi bolalarning masʼuliyat hissini shakllantirishni pedagogik qoʻllab-quvvatlashning asosiy vazifalari ham oʻz ifodasini topgan.

**Bolalarning masʼuliyat hissini shakllantirishni pedagogik qoʻllab-quvvatlash vazifalari quyidagilardan iborat:** maʼnaviy-axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, shu jumladan, mustaqillik, oʻz harakatlarini oʻz-oʻzini tartibga solish, javobgarlik, bolaning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish: qiziqish, faoliyat, masʼuliyat, javobgarlik. Yosh, fiziologik, psixologik, intellektual, shaxsiy fazilatlarini shakllantirish, taʼlim va tarbiya ehtiyojlari, qiziqishni, motivni hisobga olish ularning ongini, qadriyatlarini, kommunikativ muloqot madaniyatini va masʼuliyat hissini shakllantirishdan iborat.

Maqsadli blokning yo'naltiruvchi funksiyasi bolaning mas'uliyat hissini shakllantirishga qaratilgan. Bu funksiya bolaning tanlash qobiliyatini shakllantirishga, ularning faoliyati va harakatlarini aks ettirish, baholash, diagnostikalash, prognozlash qobiliyatiga, "O'zlik qiyofasi"ni shakllantirishga, mas'uliyatiga e'tibor beradi.

**Metodik modelning mazmunli bloki** bolalarning mas'uliyat hissini shakllantirishni pedagogik qo'llab-quvvatlashning faoliyat vazifasini bajarishni o'z ichiga oladi. Bu bo'limda pedagogik qo'llab-quvvatlash taktikasi ("yordam", "o'zaro hamkorlik" va "ko'mak"), ishtirokchilar (tarbiyachi-pedagoglar, mutaxassislar va bola) va bolalarning mas'uliyat hissini shakllanishini pedagogik qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari bayon etilgan.

Mazmunli blok bolaning mas'uliyat hissini shakllantirishni pedagogik qo'llab-quvvatlashning metodik modeli maktabgacha katta yoshdagi bolalarning quyidagi shakllanish yo'nalishlari bilan ham ifodalanadi:

1) shaxsiy shakllanish natijasida – o'zingizga ijobiy munosabatni shakllantirish, faoliyat subyekting yondashuvini shakllantirish (o'yin, muloqot va boshqalar);

2) ijtimoiy-madaniy, ma'rifiy va shaxsiy shakllanish natijasida – bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiy-madaniylashuviga, milliy o'zlikni anglashiga, jamiyatda moslashishiga, jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor qoidalaridan xabardor bo'lishiga ta'sir etuvshi ijobiy munosabatni shakllantirish;

3) ijtimoiy-madaniy shakllanish natijasida – odamlarga va jamoaga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, bolaga boshqa odamlar bilan, tarmoqli o'zaro hamkorlik va o'zaro yordam doirasida shaxslararo qadriyatli munosabatlarni o'rnatish imkonini beradi.

**Jarayonli blok** maktabgacha bolalar mas'uliyat hissini shakllantirishni pedagogik qo'llab-quvvatlashda bizning metodik modelimizning keyingi komponenti bo'lib, turli xil tashkil etiladi. Bu bo'limda tarbiyachi-pedagoglar tomonidan bolalarning mas'uliyat hissini shakllantirishni pedagogik qo'llab-quvvatlash maqsadida maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan shakl, metod va vositalarda o'z aksini torgan.

**Bizning modelimizning jarayonli blokida quyidagi shakllar keltirilgan:**

